




O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi Al-Xorazmiy nomidagi Urgach Davlat Universiteti Jismoniy Madaniyat fakulteti

1-bosqich talabasi Bekmanova Surayyoning

Hayot faoliyati xavfsizligi

Fanidan yozgan



REFERATI

Mavzu: "Kundalik turmushda sodir bo'ladigan
favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam"

Maslahatchi rahbar:

Tibbiy bilim asoslari kafedrasida
katta o'qituvchisi Z.R.Tajiyev

Urganch- 2013

Mavzu: “Kundalik turmushda sodir bo’ladigan favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam”

REJA.

I Kirish

II Asosiy qism:

2.1.Baxtsiz hodisalar va ularning kelib chiqish tasnifi

2.2.Birinchi yordam berish va uning mohiyati

2.3.Baxtsiz hodisalarda birinchi yordam ko`rsatish vazifalari va qoidalari

2.4.Harakat tayanch apparatining shikastlanishlarida nazariy va amaliy birinchi tibbiy yordam ko`rsatish.

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar

Kirish

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning g'oyalari, tashabbuslari va bevosita rahnamoligi ostida barcha sohalarda o'tkazilayotgan samarali islohotlar, dastur va rejalar, amaliy say-harakatlar avvalambor, inson uchun, uning manfaatlari, farovon va baxtli hayoti, xavfsizligi va orzu-umidlarini ro'yobga chiqishiga qaratilmoqda. Biz nimaniki rejalashtirmaylik, nimaniki amalga oshirmaylik, nimagaki intilmaylik – barchasining bosh maqsadi inson va uning farovon hayotini ta'minlash bo'lib qolmoqda.

Tinchlik – Ollohning buyuk ne'mati, hammamiz uchun ham hayotimiz asosi, barcha orzu-umidlarimiz manbai ekanligini doimo his qilishimiz kerak.

Faraz qilaylik, tasodifan baxtsiz hodisa ro'y berdi. Bu holatda ko'pchilik o'zini yo'qotadi, vahimaga tusha boshlaydi, shoshib qoladi va ortiqcha asabiylashadi yoki tez tibbiy yordam kutadi, lekin o'zlari hech narsa qilisha olmaydi.

Ammo shunday baxtsiz hodisa yuz berishi mumkinki, tez tibbiy yordam xizmati yoki tibbiy yordam xodimining yetib kelishi, yohud ushlanib qolishi va jabrlanuvchining sog'lig'ini va hatto hayotini saqlab qolish uchun zudlik bilan **yordam berish** zarur bo'lib qoladi.

Shuning uchun har bir kishi birinchi yordam ko'rsatish sohasida elementar bilimga ega bo'lishi juda muhimdir deb o'ylayman.

Ma'lumki, hayot fani insonlardan ikki asosiy vazifani talab qiladi: o'rganish va o'rgatish. Bu borada biz talabalarga davlatimiz tomonidan bilim olish, xavfsizlik ko'nikmalarini egallash uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, Urganch Davlat Universitetida Respublika va Xorazm viloyati xokimiyati hamda Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan belgilangan "Kundalik turmushda sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf qilish" kabi bir qator ko'rsatmalari asosida ham bilim olib kelmoqdamiz. Buyuk fiziolog Aristotelning shunday iborasi bor "Eng birinchi baxt sog'lik, ikkinchisi esa go'zallikdir".

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikamizda aniq ishlab chiqila boshlangan boshqaruv tizimi, davlat va jamoatchilik tuzilmalari tobora takomillashib, hozirda puxta, izchil shaklga keldi. Bugun ular nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida ham tan olinib, yetakchi o'rinlarni egallab bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi negizida 1996 yil 4 martda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi.

Vazirlikning maqsadi – mamlakatimiz aholisi va xududlarini tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ularning oldini olish, sodir bo'lganda bartaraf qilishdan iborat.

Sir emaski, kutilmaganda yuzaga keladigan favqulodda vaziyat odamlarning qurbon bo'lishiga olib keladi, iqtisodiyot ob'ektlarini vayron qiladi. Bu esa davlat iqsodiyotiga katta ziyon

yetkazib, insonlarni turmush tarziga, sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida", "Fuqaro muhofazasi to'g'risida", "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida", "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida", "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida", "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida" gi va boshqa qonunlari, mamlakatimiz Prezidentining qarorlari va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlarini bajarish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Ma'lumki, jarohatlanish oqibati o'z vaqtida ko'rsatilgan yordamga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir ishlovchi bevosita baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyda birinchi yordam ko'rsatishni bilishi kerak.

Men "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanidan olgan bilim va ko'nikmalarimga tayanib, bugungi kunda kundalik turmushda sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlar tufayli kishilarni shikastlanishi kuzatilar ekan, **har bir inson bilishi va uddalashi kerak bo'lgan birinchi yordam** berish tartibi to'g'risida to'xtalib o'tishni lozim topdim.

2.1 Baxtsiz hodisalar va ularning kelib chiqish tasnifi

1. Transport vositalarining avariylari bilan bog'liq BH

- a) Avtomobillar.
- b) Temir yo'l vositalari.
- d) Havo yo'llari vositalari.
- e) Metropoliten.
- f) Suv orqali harakatlanuvchi vositalar.

2. Uy xo'jaligi bilan bog'liq BH

- a) Elektr bilan bog'liq BH.
- b) Gaz bilan bog'liq BH.
- d) Suv-isitish tizimi bilan bogliq BH.
- e) Qurilish bilan bog'liq BH.
- f) Uy hayvonlari bilan bog'liq BH.
- g) Oziq-ovqatlar bilan bog'liq BH.
- h) Uyda ishlatiladigan kimyoviy moddalar bilan bog'liq BH.

3. Ishlab chiqarish bilan bog'liq BH

- a) Xavfsizlik texnikasini buzish natijasidagi BH.
- b) Transportning nosozligi natijasidagi BH.
- d) Portlashlar, yong'inlar natijasidagi BH.
- e) Elektr, gaz, isitish tizimidagi avariyalardan keyingi BH.
- f) Kimyoviy moddalar ishlatilishi, to'kilishi, tarqalishi, portlashi bilan bog'liq BH.
- g) Radioaktiv moddalarning tarqalishi, uchishi, to'kilishi, portlashi bilan bog'liq BH.

4. Tabiat o'zgarishlari bilan bog'liq BH.

- a) Suv toshqinlari, do'l, jala, sellar, qor ko'chkilari.
- b) Bo'ron, dovul, to'fonlar.
- d) Zilzilalar, yer ko'chishlar, o'pirilishlar.

Shikastlovchi elementning turiga, qayerga, qanday, qancha vaqt, qancha kuchda ta'sir etganligiga qarab jarohatlanish turli-tuman bo'ladi.

Shikastlanishlar besh turga bo'linadi:

- I. Shikastlanishga sabab bo'lgan sharoitga ko'ra (ishlab chiqarish, transport, sport maishiy va h.k.)
- II. Shikastlovchi omil bo'yicha (mexanik, termik, kimyoviy, nur, elektr, aralash va h.k.).
- III. Shikastlanish характери bo'yicha (yopiq, ochiq, oddiy, murakkab, va h.k.) .
- IV. Shikast ta'sir qilgan joy bo'yicha (bevosita, bilvosita).
- V. Ta'sir vaqti bo'yicha (o'tkir, surunkali).

Shikastlovchi elementlar:

1. Yer (asfalt, tuproq, qum, tosh, shag'al, beton).
2. Suv, muz.
3. Elektr toki.
4. Kislota, ishqor, tuzlar.
5. Radioaktiv moddalar.
6. Metall, oyna, plastmassa.
7. O'simliklar zaharlari.
8. Hayvonlar va hasharotlarning zaharlari.
9. Gazlar.

Qanday vaziyatda bo'lmasin birinchi tibbiy yordam ko'rsatuvchilar quyidagilarni yaxshi bilishlari lozim:

1. Bemorning yoshi kichik bo'lsa yoki juda qari, kasalmand bo'lsa, ahvol shuncha tez og'irlashadi.
2. Bemorning shilliq qavatlari kimyoviy moddalar bilan og'irroq jarohatlanadi.
3. Kimyoviy moddalarning konsentratsiyasi yuqori bo'lsa, og'irroq jarohatlaydi.
4. Vaqt qancha ko'p o'tsa, kimyoviy moddalar shuncha og'ir jarohatlaydi.
5. Balanddan yiqilganda ichki organlar yoriladi.
6. Ko'p qon yo'qotgan odamni birdan tik turg'azmaslik kerak.
7. Ta'sir etuvchi element qancha uzoq ta'sir etsa va ta'sir etish kuchi kuchli bo'lsa, bemor shuncha og'ir shikastlanadi.
8. Baxtsiz hodisalarda ko'pincha ahvoli og'ir bemorlar soni ko'payib ketadi.
9. Bemorlarga tez va aniq tibbiy yordam ko'rsatish uchun juda (tez va juda aniq tibbiy saralash o'tkazish lozim.
10. Bemorlarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish bilan birga o'zining shaxsiy xavfsizligini ham unutmaslik lozim.
11. Ko'rsatilayotgan tibbiy yordam tez, aniq, puxta, sifatli bo'lishi lozim.

2.2 Birinchi yordam berish va uning mohiyati

Birinchi yordam baxtsiz hodisa yuz bergan joyda jabrlanuvchining salomatligiga zarar tegishi yoki bevosita xavf solish darajasini kamaytirish yoki shunday hodisalarning oldini olish maqsadida, ko'rilishi zarur bo'lgan chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Birinchi yordam ko'rsatish, malakali mutaxassislarning, tez yordam mashinasining, yoki tibbiy xodimning yetib kelishigacha va jabrlanuvchi haqida bundan keyingi g'amho'rlikni o'z zimmalariga olgunlariga qadar amalga oshiriladi.

Nihoyatda muhim vazifalardan biri, jabrlanuvchidan qoʻrquv natijasida paydo boʻlgan asabiy zoʻriqishini bartaraf etish, uni tinchlantirish va himoyalanganlik hissini singdirish uchun, unga diqqat-eʼtibor bilan munosabatda boʻlishdan iborat.

Birinchi yordam koʻrsatish qoidalari

toʻgʻrilik va maqsadga muvofiqlik,
tezkorlik,
oʻylab ish tutish,
qaʼtiyatlik,
xotirjamlik.

Birinchi yordam koʻrsatish tamoyillari

Favqulodda yuz bergan hodisalarda birinchi yordam koʻrsatishning toʻrtta tamoyili mavjud.

1. Hodisa (halokat) yuz bergan joyni koʻzdan kechirish.
2. Birlamchi koʻzdan kechirish.
3. Tez tibbiy yordamni chaqirish.
4. Ikkilamchi koʻzdan kechirish.

Ularga qatʼiy rioya qilish zarur. Harakatlarning bunday ketma-ketligi sizni, jarohat olgan odamni va atrofdagi insonlarni xavf-xatardan saqlaydi, shuningdek haloskorning ishi samarali boʻlishiga yordam beradi.

Jarohat deb, kishi tanasi aʼzolarini va toʻqimalarini kutilmagan tashqi taʼsir ostida shikastlanishiga aytiladi. Bu taʼsir inson aʼzolari, toʻqimalarining anatomik butunlik, fiziologik funktsiyalarning buzilishiga sabab boʻladi. Buning natijasida kishi organizmida mahalliy hamda umumiy reaksiyalar boʻlib oʻtadi.

2.3 Shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish vazifalari va qoidalari

Favqulodda holatlarda shikastlangan fuqarolarga koʻrsatiladigan birinchi tibbiy yordamning asosiy vazifasi tezkor choralar koʻrish bilan ularning hayotini saqlab qolish, azob-uqubatlarini imkoniyat darajasida kamaytirish, roʻy berishi mumkin boʻlgan turli asoratlarning oldini olish yoki kasallikning kechishini yengillashtirishdan iboratdir.

Birinchi tibbiy yordam shikastlanish hodisasi sodir boʻlgan joyda shikastlanganlarning oʻz-oʻzlari va bir-birlariga oʻzaro yordamlari sanitar drujinachilar tomonidan koʻrsatilishi mumkin. Birinchi tibbiy yordam turkumiga quyidagi chora-tadbirlar kiradi: Qon ketishini vaqtincha toʻxtatish; badanning jarohatlangan yoxud kuygan joyiga toza steril bogʻlam qoʻyish; sunʼiy nafas oldirish va yurakni bilvosita massaj qilish, uqalash; turli zahriqotillarga qarshi emdori, antidot (ziddizahar)lar yuborish, antibiotiklar berish, ogʻriq qoldiradigan, tinchlantiradigan dorilar yuborish (ayniqsa, shok

vaqtida); yonib turgan kiyimni o`chirish, shikastlangan odamni transport vositasida bir joydan ikkinchi joyga ko`chirish uchun uning shikastlangan joyini qimirlamaydigan qilib bog`lash (transport immobilizatsiyasi), odamni issiq va sovuq harorat ta`siridan asrash, uning muzlab qolgan badanini isitish; turli zaharlovchi moddalar bilan shikastlanganlarga gazniqob kiydirish, ularni xavfsiz joylarga olib chiqish shuningdek, qisman sanitariya ishlovlarini zudlik bilan o`tkazish va hakoza.

Birinchi tibbiy yordamni mumkin qadar tez va qisqa fursatlarda ko`rsatish kasallik va shikastlanishlarning keyinchalik qanday o`tishi, oqibati nima bilan tugashi, ba`zan esa, shikastlanganlarning hayotini asrab qolish uchun nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Ko`p miqdorda qon ketayotgan, elektr tokidan shikastlangan, suvga cho`kkan paytda yurak faoliyati to`xtab, nafasi chiqmay qolgan va yana boshqa shunday og`ir hollarda albatta, birinchi tibbiy yordam ko`rsatilishi zarur. Basharti, ko`plab odamlar bir yo`la birinchi tibbiy yordam ko`rsatishga muxtoj bo`lishsa, bunday yordamning muddatlari hamda navbati belgilanadi. Ayniqsa, bolalarga va shu fursatda kechiktirib bo`lmas birinchi tibbiy yordam ko`rsatilmasa hayotdan ko`z yumish ehtimoli bor bo`lgan shikastlanganlarga birinchi navbatda tibbiy yordam ko`rsatiladi.

Ayni paytda bir yo`la har xil turdagi shikastlanishlarga duchor bo`lgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam ko`rsatish uchun ayrim usullar tartibini ham belgilab olish lozim. Bunda avvalo shikastlangan odamning hayotini saqlab qolishga imkon beradigan eng zarur amallarga asosiy e`tibor beriladi. Chunonchi, son suyagi ochiq sinib, arteriyadan qon oqib turgan vaqtda birinchi navbatda hayot uchun xatarli bo`lgan qon ketishini to`xtatish, keyin jarohatga toza, steril bog`lam qo`yish va shundan so`ng oyoqni qimirlamaydigan qilib bog`lash (immobilizatsiya qilish)ga kirishiladi. Singan suyakning o`z joyidan siljimasligi uchun maxsus shina-taxtakach yoki o`sha sharoitda ko`zga tashlanib, qo`lga ilingan yana boshqa barcha imkoniyatlar, tabiiy, hayotiy yordamchi vositalardan foydalanish lozim.

Har bir kishi birinchi yordam ko`rsatish sohasida elementar bilimga ega bo`lishi juda muhimdir.

2.4 Harakat tayanch apparatining shikastlanishlarida nazariy va amaliy birinchi tibbiy yordam ko`rsatish.

Harakat tayanch apparatining shikastlanishi juda keng tarqalgandir. Ular turli sharoitlarda yuz beradi: noqulay yoki kutilmagan harakatda yoki avtomobil avariyasida.

Sinish – Bu suyak butunligining buzilishidir. U to`liq va chala, yopiq yoki ochiq bo`lishi mumkin. Nisbatan keng tarqalgan yopiq sinishda teriga shikast yetmaydi. Ochiq sinishda esa, yara jarohati yuz beradi.

Chiqish – bu suyakning bo`g`imdagi odatdagi holatiga nisbatan siljishdir. Suyakning chiqishiga sabab bo`lgan katta kuch ta'sirida ham suyak sinishi va atrofdagi nerv hamda qon tomirlari jarohatlanishi mumkin. Suyakning chiqishini bo`g`imning ko`zga tashlanadigan deformatsiyasiga ko`ra osonlik bilan aniqlash mumkin.

**Paylarning cho`zilishi va uzilishi** bo`g`imga haddan tashqari kuch bilan ta'sir etganda yuz beradi. Pay cho`zilishning og`ir turlarida bo`g`imning bir ozgina harakati ham qattiq og`riq bilan kechadi. Boldir panja va tizza bo`g`imlari, barmoqlar va bilak paylarining cho`zilishi keng tarqalgandir.

Mushaklar va tog`aylarning cho`zilishi odatda og`ir buyumlarni ko`targanda, mushaklar haddan tashqari og`ir ish bajarganda yoki noqulay harakatda qo`qqisdan yuz beradi. Agar bu tarzda jarohatlarga e'tibor berilmasa, mushaklarning cho`zilishi surunkali holga aylanishi mumkin, ayniqsa bo`yin, bel va son sohalarida.

Kasallik belgilari va alomatlari

- Og`riq
- Shish
- Odatdagi harakat vazifasini bajara olmaslik
- Teri rangi o`zgarishi
- Deformatsiya (shaklning o`zgarishi)
- Tashqi qon ketish
- Jarohat olgan paytda suyaklarda qisirlash yoki shaqillagan tovush

Birinchi yordam

- Tinchlantirish
- Tananing jarohatlangan qismining harakatsizligini ta'minlash
- Jarohatlangan joyga sovuq narsa qo'yish
- Tananing jarohatlangan qismini bir oz yuqori holatda joylashtirish.

Harakat tayanch apparatining shikastlanishlari.

Qo'l va oyoqlarni va boshqa joylarni suyaklari singanda va chiqqanda jarohatlanganlarga birinchi yordamni singan joylarini qimirlamaydigan qilib mahkam bog`lash va ularni qulay holatda yotqizishdan boshlash kerak. Singan joylarni bog`lashda qulay va uni og`riqsizligini taminlashda yupqa taxta, tayoqcha va karton qog`ozlardan foydalaniladi va ularni bog`lash bint, qayish, ip va boshqalar bilan amalga oshiriladi.

Jarohatlangan joylarni taxtakachlashda taxta va shunga o`xshashlardan shunday foydalanish kerakki, bunda ular singan joylarni pastki hamda yuqori joylarini ham qamrab olsin. Ochiq sinish holatda uni bog`lashdan oldin qon oqishini to`xtatish kerak.

Qo'l jarohatlari

Sabablari:

1. Yiqilish, avariylar, zarba yeyish.
2. Qisib qolish, bosib qolish.
3. O'q tegishi, avtomobil avariylari.
4. Xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish.

Belgilari: qo'lning qaysi qismi, qanday, necha joyidan, nima bilan, qachon jarohatlanganligiga qarab har xil bo'ladi.


Turlari:

1. O'mrov suyagi jarohatlari.
2. Yelka suyagi jarohatlari.
3. Bilak suyagi jarohatlari.
4. Panja jarohatlari.
5. Bir necha joyning birdan jarohatlanishi.

Mahalliy belgilar: og'riq, qon ketishi, qon quyilish, qizarish, shish, harakatning cheklanishi, falajlar, suyaklar chiqib qolishi, teri shilinishi, achishish, uvishish, tomirlar tortishishi, titrash, uzilib tushish, qorayish, kuyish. Reflekslar buzilishi, bo'g'imlar chiqishi. Bo'g'im paylari cho'zilishi.

Tez yordam choralari shifokor kelguncha:

1. Jarohatlar tozalanadi, yuviladi, steril bog'lov qo'yiladi (1:5000 nisbatdagi furatsillin, 3 % li vodorod peroksid 1 % li brilliant ko'ki, 5 % li yod).
 2. Singan, chiqqan sohalar, immobilizatsiya qilinadi (ro'mol, taxtakach, simto'r va h.k.)
- 1-rasm. Yelka suyagi singanda shina qo'yish.



182

2-rasm. Bilak suyagi singanda shina qo'yish.



Oyoq jarohatlari

Sabablari:

- 1) Baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar.
- 2) Xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish.
- 3) Bolalarning qo'pol o'yinlari.
- 4) Urush davrida.
- 5) Kasalliklar natijasida.

Turlari:

- 1) Son qismi jarohatlari.
- 2) Boldir qismi jarohatlari.
- 3) Oyoq panjasi jarohatlari.
- 4) Bo'g'imlar jarohatlari.
- 5) Oyoq sohasining bir necha qismi jarohatlari.

Belgilari: oyoqning qaysi qismi, qanday, nima bilan, qachon, necha joyidan jarohatlanganligiga qarab har xil bo'ladi.

Mahalliy belgilar. og'riq, harakatning cheklanishi, falajlar, qon ketishi, qon quyilishi, bo'g'imlar chiqishi, paylar cho'zilishi, uzilishi, suyaklar g'ijirlashi, teri shilinishi, qizarish, uvishish, tomirlar tortib qolishi, titrash, oyoq shakli o'zgarishi, yura olmaslik, barmoqlar uzilib tushishi.



3-rasm. Son suyagi singanda yordamchi vositalardan shina qo'yish.


Umumiy belgilar. qon bosimi, nafas, puls o'zgarishi. Bemor rangi oqarishi, es-hush buzilishi, koma, kollaps boshlanishi mumkin.

Tez yordam choralari shifokor kelguncha:

Xavfsiz joyga olib o'tilgandan (3 kishi bo'lib) keyin:

1. Immobilizatsiya (shinalar, taxtakachlar) (1, 2,3,4-rasmlar).


4-rasm. Boldir suyagi singanda yordamchi vositalardan shina qo'yish.



Shoshilinch yordam ko'rsatish.



Shikastlangan oyoqqa Diterixs shinasini qo'yish.



4¹-rasm. Oyoqlar singanda jarohatlangan kishiga birinchi yordam ko`rsatish.

Umurtqa pog'onasi jarohatlari

Sabablari:

1. Avariylar, baxtsiz hodisalar.
2. Xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish.
3. Jinoiy-suiqasd maqsadda jarohatlash.
4. Bolalarning qo'pol o'yinlari.


Belgilari: umurtqa pog'onasining qaysi qismi, qanday, nima bilan, qachon jarohat olganligiga qarab har xil bo'ladi.

1. Bo'yinni burib, boshni qimirlatib bo'lmaydi, singan umurtqa orqada bo'rtib turadi, bossa og'riydi, orqa miya qisilib qolsa, oyoq-qo'l ishlamay qolishi mumkin.
2. Ko'krak qafasi egilib qoladi, o'tirish, qo'lni ko'tarish, aylantirish, nafas olish og'riqli, singan umurtqaning o'tkir uchi bo'rtib turadi, bossa og'riydi. Puls, qon bosimi, nafas olish o'zgaradi. Bo'yin, bel, dumg'aza tortib og'riydi.
3. Bel qismi - burilish, o'tirish, yurish, tik turish og'riqli. Singan umurtqani bossa og'riydi, bo'rtib turadi. Qorin, chanoqda tortuvchi og'riq.
4. Dumg'aza qismi - o'tirish, yurish, burilish chegaralangan, og'riq.
5. Orqa miyaning qaysi qismi shikastlansa, o'sha qism organlarining faoliyati buziladi.
6. Qon ketish, travmatik va gemorragik shok belgilari namoyon bo'ladi.
7. Jarohat bo'lsa, qonash, og'riq, shish, shilinish, qon quyilishi, ko'karish kuzatiladi.

Tez yordam choralari shifokor kelguncha:

Umurtqada sinish ro'y berganda jarohatlangan odamni tag qismiga paner yoki tenis yog'och qo'yish lozim (6-rasm).

Bunda jarohatlangan kishini gavdasini egilmasligini taminlash kerak. Jarohatlangan kishining qovurg'asi singan (nafas olishda og'riq bo'lsa) nafas chiqarishda ko'krakni bint bilan yoki sochiq bilan qisib o'rash kerak bo'ladi. Organizmda suyaklar chiqqanda ularga faqat tibbiy yordam ko'rsatishga ruxsat beriladi.



5-rasm umurtqasi singan kishiga birinchi yordam ko`rsatish.

Jarohatlanganda lat yegan shishgan joylar mahkam bog`lanadi va lat yegan joy sovutuvchi narsa bosiladi. Qorin atrofida lat yeishi juda xavflidir. Bunday holda jarohatlangan kishini tezlik bilan kasalxonaga yetkazish kerak.

Bosh suyagi jarohatlari

Sabablari: Jarohatlar turli xil bo`lishlga qaramay, ularni keltirib chiqaradigan sabablar, asosan, quyidagilardan iborat. 1) Avariyaalar. Baxtsiz hodisalar. 2) Xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish. 3) Ehtiyotsizlik (bolalarning qo`pol o`yinlar o`ynashi). 4) Jinoiy suiqasd qilish. 5) Alkogolizm oqibatida.

Tasnifi.

- 1) Bosh suyagi gumbazining sinishi.
- 2) Bosh suyagi asosining sinishi.

Turlari:

- a) ochiq va yopiq sinish;
- b) yorilish, noto`liq sinish, parchalanib sinish, itarilib kirib sinish.

Mahalliy belgilari: jarohat joyining og`rishi, qonashi, qon quyilishi, yorilishi, achishish, lo`qillash.

Umumiy belgilari: es-hush yo`qolishi, noaniqligi, koma, nafas buzilishi, yuz nervlari faoliyatining buzilishi (chaynash, yutish, nutq, ta`m bilish va h.k.), puls, qon bosimi o`zgarishi. Ko`rish, eshitish buzilishi, quloq, burin, og`izdan qon kelishi mumkin. Falajlar. Belgilar jarohat boshning qaysi tomonida, qaysi sohada ekanligiga, jarohatning chuqurligi, hajmi, bemor ahvoliga (mast, sog`) qarab har xil bo`ladi. Ba`zan bemorlar shok va koma holatiga tushadi.

Tez yordam choralari shifokor kelguncha:

Xavfsiz joyga olib o`tilgandan so`ng:

- 1) Jarohat tozalanadi, 1:5000 nisbatdagi furatsillin, 3 % li vodorod peroksid, iliq suy bilan yuviladi.
- 2) Steril bog`lov qo`yiladi. (7-rasm)
- 3) Protezlar, ko`zoynaklar yechiladi.
- 4) Qon ketayotgan bo`lsa, tez yordam choralari ko`rilib, qon to`xtatiladi.
- 5) Bemor behush bo`lsa, boshini yonboshiga qilib, bo`yin-yelka sohasiga valik qo`yiladi.
- 6) Hushi o`zida bo`lsa, yostiqsiz yotqiziladi.
- 7) Nafas yo`llaridagi shilliq, qonni tozalab turiladi.

8) Bosh sohasiga muz xalta qo'yiladi.

Yuz jarohatlari

Turlari: 1) ochiq; 2) yopiq.

Ochiq jarohatlar: qon quyilishi, lat yeyish, suyaklar sinishi, chiqishi, muskullar, nervlar, paylar uzilishi, yirtilishi.

1) Yuqori jag' suyaklarining sinishi.

2) Pastki jag' suyaklarining sinishi.

3) Pastki jag'ning chiqishi.

4) Tishlarning sinishi.

Mahalliy belgilar: qizarish, achishish, lo'qillash, shish, og'riq, qonash, qon quyilish, chaynash, yutish, ta'm bilish, so'lak ajralishini buzilishi, og'izni ochib-yopish qiyinlashadi, tishlar sinishi, chiqib ketishi, ovqat yeya olmaslik holati ro'y berishi mumkin.

Tez yordam choralari

1) Immobilizatsiya qilinadi.

2) Pastki jag' chiqqanda joyiga tushiriladi.

3) Singan tishlarni olib tashlab, tampon qo'yiladi.

4) Burun qonayotgan bo'lsa, tampon qo'yiladi.

Ko'krak qafasi organlarini jarohatlari

Sabablari:

1) Avariylar, baxtsiz hodisalar.

2) Jinoiy qasddan jarohatlash.

3) Xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish.

4) Urush davrida.

Belgilari:

Qaysi organ, qanday, nima bilan, qachon, necha joyidan jarohat olganligiga qarab har xil bo'ladi.

Turlari:

1) Qovurg'alar (bitta yoki bir nechta) sinishi.

2) To'sh suyagi sinishi.

3) O'pka jarohatlari.

4) Yurak jarohatlari.

5) Ko'krak ichidagi qon tomirlari jarohatlari.

6) Qizilo'ngach, traxeya, bronxlar, nervlar jarohatlari.

7) Umurtqa pog'onasi, orqa miya jarohatlari.

Mahalliy belgilar: og'riq, qon ketishi, qon quyilishi, ko'karish, shish, shilinish. Qovurg'a va to'sh

sinig'i chiqib turishi, g'imirlashi, ko'krak qafasi jarohatlangan tomonining harakati chegaralanishi. o'pkada nafas olish o'zgarishi, ko'krak qafasining shakli o'zgarishi, teshikdan havo kirishi.

Tez yordam choralari shifokor kelguncha:

Xavfsiz joyga olib o'tilgandan so'ng:

1) Jarohatlar tozalanadi, 1:5000 nisbatdagi furatsillin, 3% li vodorod peroksid, 3% li brilliant ko'ki, 1%, 5% li yod bilan yuviladi.

2) Steril bog'lov qo'yiladi.

Eslatma: bolalarda ko'krak qafasi egiluvchan, keksalarda qattiq, egiluvchanligi kam bo'lishini unutmang.

Xulosa

Mamlakatimiz aholisi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, ularni ro'y berishi ehtimoli bo'lgan turli ko'rinishdagi ofatlardan muhofaza qilish, amaliy mashqlarni kuchaytirish borasida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning quyi tizimlari tomonidan bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Insoniyat va jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi ilm-fan va texnikaning jadal taraqqiy qilishi hamda ulkan yutuqlari bilan xarakterlanadi. Kishilarning mehnat qilish va dam olish sharoitlarini yaxshilash ularning umrini uzaytiradi. Biroq texnika taraqqiyoti odamga zararli ta'sirotlar xavfini oshiradi. Ko'rilayotgan profilaktik chora-tadbirlarga qaramay, transport vositalarining ko'payishi bilan ulardan shikastlanish hollari ortib bormoqda. Har yili minglab kishilar transportdan shikastlanib halok bo'ladi, ko'plari esa mayib-majruh bo'lib qoladi. Shikastlanganlarning hayotini qutqarib qolishga qaratilgan choralar orasida birinchi tibbiy yordamning ahamiyati katta, u nechog'li tez ko'rsatilsa, samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Respublikada tibbiyot muassasalari soni yil sayin ko'payib bormoqda, shunga yarasha shifokorlar, feldsherlar, hamshiralar, laborantlar ko'proq tayyorlanmoqda. Bu aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatishni yuqori darajada olib borishni va davolash natijalarini keskin yaxshilash imkonini beradi. Biroq tez tibbiy yordam xizmati yuksak darajada tashkil qilingan bo'lsada, to'satdan kasallanish va baxtsiz hodisalarda yaqin joydagi fuqarolar shifokorgacha birinchi tez tibbiy yordam ko'rsata olmasalar, kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi. Aholini birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalariga o'rgatishga intilishning sababi ham aynan ana shunda.

Birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatishning umumiy qoidalari maktabda, oliygoxlarda o'rgatiladi, u o't o'chiruvchilar, militsiya xodimlari, transport haydovchilarni tayyorlash o'quv dasturiga ham kiritilgan. Harbiy xizmatchilar ham tez tibbiy yordam ko'rsatishni o'rganadilar.

Fuqaro muhofazasi bo'yicha mashg'ulotlarning o'qitilishi, mutaxassislar malakasi, o'quv sinflari, auditoriyalarning jihozlanishi, ko'rgazmali va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganligi, ta'lim muassasalarining Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish rejasi, muassasa xodimlari bilan olib borilayotgan mashg'ulotlar kishilarda Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, **birinchi yordam** ko'nikmalarini oshirishda ahamiyatga ega.

Fikrim yakunida shuni alohida qayd qilishim lozimki, har xil ko'rinishdagi Favqulodda vaziyatlar, ular tufayli ko'rilayotgan moddiy va ma'naviy zararlardan jarohatlanish oqibati o'z vaqtida ko'rsatilgan yordamga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir ishlovchi bevosita baxtsiz hodisa sodir bo'lgan joyda birinchi yordam ko'rsatishni bilishi kerak.

Shunday ekan favqulodda vaziyatlar ta'sirini kamaytirish, oldini olish, bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqish, to'g'ri harakat qilish hamda birinchi tibbiy yodam berishni bilish har birmizni burchimizdir.

Bugungi kunda kundalik turmushda sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlar tufayli kishilarni shikastlanishi kuzatilar ekan, **har bir inson bilishi va uddalashi kerak bo'lgan birinchi yordam** berish tartibi to'g'risidagi yusoridagi bir qator bilimlarni bilishi lozim deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: "O'zbekiston", 1999.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikga tahdid va barqarorlik kafolatlatlari. Toshkent -1997 y.
3. Tabiiy, tehnogen va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'grisidagi vazirlar mahkamasining 27 oktyabr 1998 yil № 455-sonli qarori.
4. Y.Allayorov, Y.Tojiboyev «Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam assoslari» Toshkent-2005 y.
5. O.Qudratov, T. G`aniev «Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi». Toshkent-2005 y.
6. M.Tojiev, I.Ne'matov, M.Ilhomov «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» Toshkent-2002 y.
7. Fuqaro muhofazasi instituti jamoasi «Tinglovchilar uchun fuqaro muhofazasi masalalari bo'yicha o'quv qo'llanmasi» Toshkent-2008 y.